



Dilnoza Nazarova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix kafedrası dotsenti v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail:

dilnoza.nazarova8080@gmail.com

O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI TARIXIDAN.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605817>

Annotatsiya. O'rta Osiyoda muzeyshunoslikni vududga kelishining ilk bosqichi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda muzeylar tashkil qilishga turtki bo'lgan omillardan biri ilmiy jamiyatlar, olimlar, mahalliy aholining o'lkaga oid numizmatika, minerologiyaga oid kolleksiyalar yig'ishga bo'lgan e'tiboriga qaratildi. Davlat muzeylarini shakllanish tarixi uzoq tarixiy voqeylikni o'z ichiga olib, 1876 yilda O'rta Osiyoda tashkil etilgan ilk muzey O'zbekiston tarixi davlat muzeyi bo'ldi.

Kalit so'zlar: Turkiston bo'limi, milliy-hududiy chegaralanish, front gazetalari, infratuzilma, konsepsiya, galereya, eksponent, kolleksiya, muzey, statistika qo'mitasi.

Kirish. O'rta Osiyoda muzeyshunoslikni vududga kelishining ilk bosqichi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda muzeylar tashkil qilishga turtki bo'lgan omillardan biri ilmiy jamiyatlar, olimlar,

mahalliy aholining o'lkaga oid numizmatika, minerologiyaga oid kolleksiyalar yig'ishga bo'lgan e'tiboriga qaratildi. Natijada olimlar tomonidan to'plangan kolleksiyalarni birlashtirish orqali yagona muzey tashkil etish masalasi ilgari surilgan. Jumladan, A.P. Fedchenko, V.F. Oshanin, V.V. Bartold, N.A. Mayevlarning tashabbusi bilan Turkiston general gubernatorligida ilk muzey shakllandi. Bu muzeyning moddiy va ma'naviy ashyolari yetarli bo'lmasada, vaqt o'tishi bilan O'rta Osiyoning bosh muzeyiga aylandi.

1876-yil 12-iyulda Turkiston statistika qo'mitasi raisi N.N.Golovachev va general-mayor A.N. Mayevlar Turkiston general- gubernatori fon Kaufmanga qo'mita qoshida yangi muzey ochishga ruxsat so'rab murojaat qiladilar. Ushbu murojaat asosida **O'rta Osiyoda birinchi muzey** tashkil topadi[1,9].

O'rta Osiyo xalqi uchun ma'naviy yangilik bo'lgan, ochilishi mo'ljallangan muzeyga davlat tomonidan bino ajratilmagan. Natijada general-mayor N.A. Mayev o'ziga qarashli ipakchilik maktabi [2,5] binosidan muzey uchun ikki xona ajratadi [3,12]. Shu tariqa dastlab Toshkent muzeyi nomi bilan shakllangan bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining bosh muzeyiga aylangan O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga tamal toshi qo'yilgan.

Turkiston muzeyi tashkil topgan dastlabki yilda jami 1486 ta buyum mavjud bo'lib, eksponatlarning asosiy qismi shaxsiy tuhfarlar evaziga yig'ilgan va ularni saqlash uchun g'aznadan 600 rubl miqdorida mablag' ajratilgan. Biroq, bu mablag'lar hatto eng zarur ehtiyojlarni qoplash uchun yetarli bo'lmagan. Muzeydagi buyumlarni saqlash uchun har yili kamida 1600 rubl kerak bo'lgan. Shu sababli 1877-yilda muzeyni moliyaviy va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida statistika komiteti ixtiyoriga berilgan. Muzey rahbarligini O'rta Osiyo ilmiy jamiyatining Turkiston bo'limi a'zolari komiteti amalga oshirgan[4,36].

Muzeylar tashkil qilinibdiki o'zining rivojlanish tarixini bosib o'tgan. 1876-1880-yillarni o'z ichiga olgan birinchi davrda muzey fondi numizmatika, etnografiya, geologiyaga oid turli to'plamlar bilan boyigan.

Qolaversa, Rossiya imperiyasi tomonidan o'lkani bosib olish mobaynida xonliklardan va mahalliy aholidan tortib olingan buyumlar evaziga muzey eksponantlari ortib brogan [5,3]. Mansabdor shaxslar qo'lga kiritgan moddiy va ma'naviy ashyolarni ehson sifatida muzeyga topshirib turgan. Masalan, Semirechenskiy viloyati gubernatori general-leytenant Kolpakovskiy qashqarlik askarlar uchun yasalgan, did bilan ishlangan qurollardan bir nechtasini sovg'a tariqasida yuborgan[6,1]. Avliyoota uyezdi rahbari general-leytenant V.A. Gerua esa xitoylik hunarmandlar tomonidan qo'l mehnati asosida yasalgan mis ko'zachalarni muzey fondi uchun jo'natadi [7,1].

Shu tariqa muzey faoliyatining dastlabki bosqichida yig'ilgan buyumlar jamlanib yaxlit holga keltirilgan. 1883-yilga kelib muzey xalq kutubxonasi bilan birlashtirilgan. 1918-yil 1-iyuldan boshlab muzey xalq kutubxonasidan ajratilib, Turkiston Xalq Maorifi Komissarligi qoshidagi mustaqil muassasaga aylantirilgan[8,13].

1890-yilda muzey ekspozitsiyasiga jami 5400 nafar kishi tashrif buyurgan bo'lsa, 1906-yilga kelib 4985 nafar kishi, 1907-yilda 5500 nafar, 1908-yilda 10010 nafar, 1910-yilda 22 466 nafar, 1913-yilda 35 000 nafar, 1916-yilda 370 000 nafar kishi tashrif buyurgan[9,161]. Yildan yilga xalqimizning muzeyga bo'lgan qiziqishi ortib borgan. Hatto 1918-yil 15-iyundan Turkiston muzeyi haftaning juma va yakshanba kunlari ochiq bo'lib, xalqimizning ma'naviy tasavvurlarini boyitishda xizmat qilgan. Shu kundan boshlab muzeyga tashrif buyuruvchilar ro'yxati shakllantirilgan[10,69].

Muzeyga tashrif buyuruvchilarni yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, birgina 1918-yilning sentyabr-dekabr oylarida jami 13 713 nafar kishi muzeyga tashrif buyurgan bo'lsa 1919-yil mart-noyabr oylarida 77592 nafar, 1920-yil yanvar-dekabr oylarida 279109 nafar kishi tashrif buyurganini ko'rish mumkin[11,6]. 1920-yilga kelib, Turkiston xalq muzeyi fondida 10 000 eksponat mavjud bo'lib, shundan, etnografiya bo'limida 895 ta, zoologiya bo'limida 798 ta, numizmatika bo'limida 2464, arxeologiya

bo'limida 3550 ta, botanika bo'limida 66 ta, harbiy tarixiy bo'limda 958, badiiy bo'limda 31 ta, geologiya bo'limida 250 ta eksponat bo'lgan[12,28].

Keltirilgan raqamlardan bilish mumkinki, 1918-1920-yillarda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga qaramay xalq mavjud urf-odatlarini, an'analari aks etgan tarixni bilishga intilishi o'sha davr uchun katta qadam hisoblangan. Shu jumladan, 1918-yilda o'lkadagi mavjud yodgorliklarni saqlash va o'rganish maqsadida qadimiy me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ta'minlash bo'yicha komissiya tashkil qilinishi muzey faoliyatini rivojlanishida turtki bo'lgan.

O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgan davrda Turkiston muzeyi O'zbekiston SSRdagi madaniyat markazlaridan biri hisoblangan. 1933-yilda muzey SSSR Fanlar Akademiyasining O'zbekistondagi filiali fanlar komitetining ixtiyoriga o'tkazildi va Tarix va revolyutsiya markaziy o'zbek muzeyi (Центральный узбекский музей истории и революции-ЦУЗМИИР) nomini oldi[13,].

1924-yilda muzey fondida 12000, 1925-yilda 28000[14,73], 1938-yilda 72 113, 1939-yilda 90 180, 1940-yilda 86 848 dona eksponat bo'lgan[15,176]. Yildan yilga eksponatlar yig'ilgan va to'plangan ashyolar bilan boyib borgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikadagi ko'plab muzeylar faoliyati vaqtincha qisqartirilgan. Harbiy vaziyat tufayli 1941-yil noyabrda San'at va Alisher Navoiy muzeyi Tarix muzeyiga birlashtirilgan[16,17]. Urush davrida tarix, madaniyat va san'at muzeyida doimiy ko'rgazma sifatida o'zbekistonlik jangchilarning jasorati, front orqasidagi fidokorona mehnati, frontdagi hayot-mamot janglar aks etgan suratlar, hujjatlar, front gazetalari, qahramonlarning shaxsiy buyumlari o'rin olgan.

1942-yildan muzeyda Ulug' Vatan urushi, sovet askarlari va front oldi ishchilari qahramonligiga bag'ishlangan zallar ochilgan. 1943-yilda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi bilan muzey ilmiy muassasa sifatida uning tarkibiga kiritilgan[17,89].

1969-1992-yillar mobaynida muzey o'zbek yozuvchisi M.T. Oybekning nomi bilan faoliyat yuritgan hamda 1964-yildan

1987-yilga qadar qurilgan sobiq Turkiston davlat palatasi binosida joylashgan[18,9].

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi bo'yicha ma'lumot

№	Yil	Muzeyning turli davrlarda nomlanishi
1	1876	Toshkent muzeyi (Ташкентский музей)
2	1880	Toshkent ommaviy muzeyi yoki Toshkent xalq muzeyi (<i>Ташкентский публичный музей</i>)
3	1883	Turkiston xalq kutubxonasi va muzeyi (<i>Туркестанская публичная библиотека и музей</i>)
4	1918	Turkiston xalq o'lka muzeyi (1918 yil 1 iyundan Turkiston xalq universiteti tasarrufiga o'tkazilgan. 1919 yilda Turkiston general-gubernatorligining qarorgohi "Oq uy"ning bir qismi muzeyga berildi (<i>Туркестанский народный краевой музей</i>))
5	1922	"O'rta Osiyo bosh muzeyi" (<i>реорганизован в Главный Среднеазиатский музей</i>)
6	1925	O'rta Osiyo bosh muzeyi Badiiy muzey bilan birlashtirildi
7	1930	O'rta Osiyo tarixi va revolyutsiya tarixi muzeyi (<i>Среднеазиатский музей истории и истории революции-САМИИР.</i>)
8	1933	Tarix va revolyutsiya markaziy o'zbek muzeyi (<i>Центральный узбекский музей истории и революции-ЦУЗМИИР</i>)
9	1935	Markaziy tarix-revolyutsiya muzeyi (<i>Центральный историко-революционный музей</i>)
10	1940	Markaziy tarix muzeyi (<i>Центральный музей истории</i>)
11	1941-42 йилларда	3 ta muzey birlashtirildi: Tarix, San'at va Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi (<i>Объединили 3 музея Музей истории, искусства и литературы им. Навои</i>)

12	1943	“O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi” deb nomlanib, UzSSR FA ga o‘tkazildi (<i>вошёл в систему АНУзССР под названием “Музей истории народов Узбекистана”</i>)
13	1964	Boshqa binoga ko‘chirilgan (Turkiston davlat palatasi uchun injener V.S.Geyselman boshchiligida qurilib, XIX asr arxitektura yodgorligi xisoblangan va 45 ta zal, 2188 m ² maydonga ega bo‘lgan).
14	1969	M.T.Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi (<i>“Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека”</i>)
O‘zR FA M.Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi filiali sifatida ochilgan uy muzeylari		
1	1964 yil 17 oktyabrda	Marg‘ilon shahrida Yo‘ldosh Oxunboboyev memorial muzeyi
2	1975 yil 1 martda	Yangiyo‘l shahrida Usmon Yusupov uy muzeyi ochildi

Mustaqillikka erishgach O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining qo‘shma yig‘ilishida Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi tugatilib, uning negizida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekiston tarixi muzeyi tashkil etildi. 1994-yil 5-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qaroriga binoan Fanlar akademiyasining O‘zbekiston tarixi muzeyiga Davlat muzeyi maqomi berildi[19]. Endilikda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Respublikamdagi muzeylarning barchasi xalqimizning boy madaniy va ma’naviy merosi, asrlar davomida shakllangan san’at va madaniyatini, milliy urf-odat va qadriyatlarimizning har bir tarixiy bosqichlarida yuksak

darajada ekanligini jahonga tanitish, uning umumbashariy sivilizatsiyadagi oʻrni va ahamiyatini keng targʻib etish, tasviriyl va amaliyl hunarmandchiligi sanʼati yoʻnalishlarida faoliylat koʻrsatgan ijodkorlar asarlari asosida milliy istiqlol, erkin va farovon hayot gʻoyalarini tarannum etishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. ЎзМА. И-72-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 9-варақ.
2. Turkiston oʻlkasida ipakchilik tarmogʻini rivojlantirish maqsadida 1871 yil 6 sentyabrda ipakchilik maktablari ochish toʻgʻrisidagi hukumat qaroriga asosan, 1873 yildan ipakchilik maktabi ochilgan. Maktabga mahalliy aholining 18 yoshdan katta 20 nafar erkaklar olinishi kerak boʻlgan. Oʻqish bepul boʻlib, maktabni tugatganlarga alohida guvohnoma berilgan. Ipakchilik maktabi oʻz davrida muassasa tashkilotchilari va rahbarlari boʻlgan V.F.Oshanin, N.A.Mayev kabi mutaxassislar tomonidan boshqarilgan. Ushbu maktab 10 yil mobaynida faoliylat olib borib, 1883 yilda general-gubernator M.G.Chernyayev buyrugʻiga binoan tugatilgan. Qarang: ЎзМА. И.1-фонд, 15-рўйхат, 97, 98, 162-иш, 35,26, 5-варақлар.
3. ЎзМА. И-72-фонд, 1-рўйхат, 32-иш, 12-варақ.
4. Курязова Д. Туркистонда илк музейларнинг шаклланиш тарихидан // УзМу хабарлари. 2016. № 1/3. - Б.36.
5. Исмоилова Ж.Илмий ва маърифий маскан // Мозийдан садо. - Тошкент. 2005 №2. - Б.3.
6. Туркестанские ведомости. № 15. 1878 года 11 апреля.
7. Туркестанские ведомости. № 10. 1878 года 7 марта.
8. Исмоилова Ж. Октябрь арафасидаги Тошкент. - Тошкент: Ўзбекистон. 1987. - Б.13.
9. ЎзМА. И-72-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 8-варақ. Қаранг: Исмаилов А. Ўзбекистон тарихи давлат музейининг илм-фан ривожиди тутган ўрни // Замонавий дунёда музейшуносликнинг долзарб масалалари" халқаро илмий-амалий анжуманд материаллари. 1-китоб. - Тошкент. 2021. - Б.161.

10. Из истории музейного строительства в Узбекистане. - Ташкент. 1977. - С.69.
11. Содиқова Н. М.Т.Ойбек номидаги Ўзбекистон халқлари тарихи музейи 100 ёшда. - Тошкент: Фан. 1978. - С. 6
12. Содиқова Н., Буряков Ю. Тарихий ёдгорликлар хазинаси. - Тошкент. 1963. - Б.28.
13. Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека. Путеводитель. - Ташкент: "Узбекистан", 1971. - С.8.
14. Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана: путеводитель-справочник. Ташкент: Фан, 1978. - С.73.
15. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. - Тошкент: Фан, 1981. - Б. 176.
16. ЎзМА. Ф-2246, 1-рўйхат, 29-иш, 17-варақ.
17. Содиқова Н., Ревес А. М.Т.Ойбек номидаги Ўзбекистон халқлари тарихи музейи. Музей залларида. - Тошкент: Ўзбекистон. 1971. - Б.89.
18. Содиқова Н. М.Т.Ойбек номидаги Ўзбекистон халқлари тарихи музейи. - Тошкент: Ўзбекистон, 1971. - Б. 9.
19. Курязова Д. Ўзбекистон музейлари: моддий маданий меъросини ўрганиш, сақлаш масалалари. - Тошкент: "Info capital group", 2018. - Б. 54; Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 21 апрельдаги «Ўзбекистон тарихи музейини ташкил этиш тўғрисида»ги Қарори // <https://lex.uz/acts/424562>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 5 августдаги «Ўзбекистон тарихи давлат музейини ташкил этиш тўғрисида»ги Қарори // <https://lex.uz/docs/745061>

ИЗ ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Первый этап становления музейного дела в Средней Азии начался во второй половине XIX века. Одним из факторов, способствовавших созданию музеев в этот период, стало внимание

научных обществ, учёных и местных жителей к сбору местных нумизматических и минералогических коллекций. История становления государственных музеев включает в себя длительную историческую историю, и первым музеем, созданным в Средней Азии в 1876 году, стал Государственный музей истории Узбекистана.

Ключевые слова: Туркестанский отдел, национально-территориальное размежевание, фронтовые газеты, инфраструктура, концепция, галерея, экспонент, коллекция, музей, статистический комитет.

FROM THE HISTORY OF THE STATE MUSEUM OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Abstract. The first stage of museum development in Central Asia began in the second half of the 19th century. One of the factors contributing to the creation of museums during this period was the attention of learned societies, scholars, and local residents to the collection of local numismatic and mineralogical collections. The development of state museums has a long history, and the first museum established in Central Asia in 1876 was the State Museum of the History of Uzbekistan.

Keywords: Turkestan Department, national-territorial delimitation, frontline newspapers, infrastructure, concept, gallery, exhibitor, collection, museum, statistics committee.